



**FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA**

**MEDIATSIYAJARAYONI ISHTIROKCHILARINING HUQUQIY
MAQOMI: QONUNCHILIK TAHLILI**

Abdullajonov Xumoyun Nozimxon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

"Advokatlik faoliyati" yo`nalishi

magistratura talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nizolarni muqobil hal etish instituti sifatida mediatsiya jarayoni ishtirokchilari tushunchasi, mediatsiyada uchinchi shaxslarning huquqiy maqomini aniqlashdagi mavjud bo'shliqlar, professional va noprofessional mediatorlarning huquq va majburiyatlari taqqoslanib, sohani takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Huquqiy maqom, taraflar, mediator, huquq va majburiyatlar, uchinchi shaxslar.*

**ПРАВОВОЙ СТАТУС УЧАСТНИКОВ ПРОЦЕССА МЕДИАЦИИСТАТУС:
АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА**

Абдуллажонов Хумоюн Нозимхон ўгли

Ташкентский государственный юридический университет

Направление "адвокатская деятельность"

студент магистратуры


Аннотация: *В данной статье проанализировано понятие участников процесса медиации как института альтернативного разрешения споров, имеющиеся пробелы в определении правового статуса третьих лиц в медиации, сопоставлены права и обязанности профессиональных и непрофессиональных медиаторов, даны предложения и рекомендации по совершенствованию сферы.*

Ключевые слова: *правовой статус, стороны, посредник, права и обязанности, третьи лица.*

**LEGAL PARTICIPANTS OF THE MEDIA CAMPAIGN
STATUS: LEGISLATIVE ANALYSIS**

Abdullajonov Xumoyun Nozimkhonovich

Master student of Tashkent State University of law





Annotation: *In this article, the concept of the participants of the mediation process as an alternative Institute for the settlement of disputes, the existing gaps in the determination of the legal status of third parties in the media, the rights and obligations of professional and non-professional mediators were compared, and proposals and recommendations were made to improve the sphere.*

Keywords: *legal status, parties, mediator, rights and obligations, third parties.*

Bugungi kunga kelib nizolar sud tartibida yoki ularga muqobil bo'lgan boshqa usullar yordamida hal etib kelinmoqda. Nizolarni sud tartibida hal qilish ko'p vaqtni talab qiladi. Birgina da'vo tartibida ish yuritishda sudlar kelib tushgan arizani ishyurituviga qabul qilishi uchun o'n kundan kam bo'lmagan vaqt davomida o'rganib chiqib, kerakli sud hujjatini qabul qiladi. Bu esa o'z navbatida, nizo taraflari uchun ma'lum jihatdan katta yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Nizolarni muqobil hal etish shakllari bu kabi kamchiliklarni oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ko'plab mutaxassislarning fikriga ko'ra, nizolarni sud tartibidan tashqari har qanday usulda hal etish muqobil usul sifatida qaraladi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda "nizo va ixtiloflarni muqobil hal etish" tushunchasi sud tartibida nizolarni hal qilish jarayoniga muqobil ravishda qo'llaniladi. Boshqa protsses jarayonlaridan farqli ravishda mediativ taomilni amalga oshirishda taraflar asosiy rol o'ynaydi.

Mediatsiya tartibida taraflar deganda "nizoli fuqarolik, mehnat, oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida harakat qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslar tushuniladi. Mediatsiya tartib-taomili ishtirokchisining maqomi uning ushbu tartibdagi o'rni va rolini belgilaydi, shuning uchun har bir ishtirokchining huquq va majburiyatlarini aniq belgilab olish zarur. Mediatsiyada ishtirok etuvchi har bir shaxs muayyan rol o'ynaydi va protseduraning boshqa ishtirokchilarining funksiyalaridan farq qiladigan funksiyalarni bajaradi, ammo ularning barchasini birlashtirib turadigan umumiy maqsad - yuzaga kelgan nizolarni hal qilish va huquqlarni himoya qilishdan iborat bo'ladi.

Avvalo, mediatsiya tartib-taomili nizolarni hal etishda taraflarning ixtiyoriyligi prinsipiga asoslanadi. Mediatsiya jarayoni ishtirokchilariga, birinchi navbatda, mediatsiya qoidalari bilan belgilanadigan va tomonlarning mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuvida tartibga solinishi mumkin bo'lgan juda xilma-xil huquqlar beriladi. Bu huquqlarning asosiylari quyidagilardir:

mediatorni ixtiyoriy ravishda tanlash;

mediatordan voz kechish;

mediatsiyaning istalgan bosqichida unda ishtirok etishdan voz kechish

qonunchilikda belgilangan tartibda shaxsan yoki o'z vakillari orqali ishtirok etish.

Shu o'rinda mediatsiya fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga tatbiq etilishi belgilangan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki,






mediatsiyada ishtirok etuvchi shaxslar yakka mehnat nizolari bo'yicha xodim va ish beruvchi, tadbirkorlik bilan bog'liq nizolarda yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lsa oilaviy nizolarda taraflar

er-xotin yoki ma'lum bir qarindoshlar taraf sifatida ishtirok etuvchilardir. Sud jarayonidagi kabi taraflar muhokamalarda qatnashish, tushuntirishlar berish, jarayonga nisbatan o'z fikrlarini mediatorga bildirish yo'li bilan bevosita ishtirok etish huquqiga ega bo'lsalar, suddan farqli ravishda, nizoni hal qilish mumkin bo'lgan variantlarini taklif qilish huquqiga egadirlar. Shuningdek, jarayonda tomonlar bevosita emas, balki bilvosita ishtirok etishi ham mumkin. Bu ishonchnoma asosida berilgan ma'lum bir vakolatlar doirasida vakilni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Mediatsiya ishtirokchilariga berilgan eng ahamiyatli huquqlardan biri o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilish huquqidir. Bu huquq hech narsa bilan, shu jumladan mediatsiya tartib-taomilini qo'llash va uni o'tkazish to'g'risida taraflar o'rtasida kelishuv mavjudligi bilan ham cheklanishi mumkin emas. Protsessning boshqa ishtirokchilari singari nizo taraflari ham mediatsiya tartibida bir qator majburiyatlarga ega hamda ularning ayrimlari O'zbekiston Respublikasi "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunida asosiy prinsip sifatida keltirilgan. Jumladan, Qonuning 6-moddasida mediatsiya ishtirokchilari mediatsiya jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni ularni taqdim etgan mediatsiya tarafining, uning huquqiy vorisining yoki vakilining yozma roziligisiz oshkor qilishga haqli emasligi belgilangan. Bundan tashqari ko'pgina majburiyatlar taraflarning mediativ kelishuvida nazarda tutilib, mediatorga nizo predmeti to'g'risidagi, uni hal qilish uchun ahamiyatli bo'lgan ishonchli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish, shuningdek, mediatsiya tartibi to'g'risidagi shartnoma asosida qabul qilingan majburiyatlarga rioya qilishdir.

Shuningdek, mediatsiya tartibida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarning tavsifini berish kerak. Bular "nizoni hal etishda qonuniy manfaatdor bo'lgan, nizoni mediatsiya tartib-taomillarini qo'llagan holda hal etish natijasida huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan yoki daxl qilinishi mumkin bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslardir." Misol uchun, uchinchi tomon nizolashayotgan tomonlarning firmasi va unda ishlaydigan xodimlar yoki oilaviy nizolarda

er-xotining ota-onasi bo'lishi muki. Bundan tashqari ko'pchilik mehnat nizolarida xodimning manfaatlarini ishchilarning kasaba uyushmalari himoya qilish uchun chaqiriladi. biroq Mediatsiya jarayonida uchinchi shaxslarning huquqlarini jamlovchi aniq qonunchilik qoidalari yo'qligi sababli ushbu ishtirokchilarning huquqiy maqomini aniqlash jarayonni boshqa ishtirokchilariga qaraganda ancha murakkabdir.

Mediatorlar esa ishda eng faol va nizoni taraflarning murossasiga intilgan holda hal etishga harakat qiluvchi shaxs bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi 482-sonli "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni 4-moddasida mediatsiyani amalga oshirish uchun taraflar tominidan tomonidan jalb etiladigan shaxs deya ta'riflangan. Mediator o'rtasida nizo kelib chiqqan taraflarning manfaatlarini muvozanatini saqlashga





ko'maklashish va uni shartnoma tuzish orqali ixtiyoriy ravishda hal etish maqsadida jarayonda ishtirok etadi. Mediator o'z faoliyatini ham professional, ham noprofessional tarzda amalga oshirishi mumkin, ikkala holatga ham qonuniy ravishda ruxsat etiladi. Shu bilan birga, noprofessional mediator sifatida faoliyat yuritish uchun talabgor: 25 yoshga to'lgan va mediator vazifalarini bajarishga rozilik bergan bo'lishi kerak. Rossiya qonunchiligiga ko'ra noprofessional mediatorlar voyaga etgan, muomalaga layoqatli va sudlanmaganlik talablariga javob berishi lozimligi ko'rsatilib, mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun berilgan ariza o'z navbatida yozma roziligi sifatida ham qabul qilinadi. Professional asosda mediatorlik faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan, shuningdek Professional mediatorlar reyestriga kiritilgan shaxs amalga oshiradi. Qonun har ikkala asosda mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanishga oliy ma'lumot yoki yuridik oliy ma'lumotni talab sifatida qo'ymagan.


Qonunchilikda mediator bo'lishi mumkin emas bo'lgan shaxslar doirasi aniq belgilab qo'yilgan:

- davlat vazifalarini bajarish uchun vakolat berilgan yoki unga tenglashtirilgan shaxs, bundan notariuslar mustasno;
- muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lgan shaxs;
- sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs;
- o'ziga nisbatan jinoiy ta'qib amalga oshirilayotgan shaxs.

Qonunda mediatsiya jarayonida mediatorning nizo yuzasidan o'zaro maqbul kelishuvga erishishga taraflarni ishontirishning qonuniy vositalari va usullaridan foydalanishi, o'zining mustaqilligi va xolisligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud bo'lsa yoki yuzaga kelsa, bu haqda taraflarga ma'lum qilishi shartligi to'g'risidagi umumiy qoidalar bilan cheklanib, unga nizo tomonning vakili sifatida harakat qilish taqiqlanishi; tomonlardan biriga maslahat berish, bahsli huquqiy munosabatlar bilan bog'liq maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish; mediatsiya jarayonining natijalaridan manfaatdor bo'lish; nizoda taraf bo'lgan shaxsning qarindoshi bo'lish kabilarni ifoda etmagan.

Mediatsiya munosabatlarining ishtirokchisi deb hisoblaydigan navbatdagi shaxs bu advokatdir. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuni 3-moddasida advokatning haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyatlaridan biri sifatida mediatorlik faoliyati ham sanab o'tilgan. Ushbu munosabatlarda advokat ham nizo taraflaridan birining vakili sifatida, ham mediator sifatida ishtirok etishi mumkin. Tomonlardan birining vakili bo'lgan advokat o'z mijozlariga mediatsiya tartibini tavsiya etish yoki etmaslik kerakligi to'g'risidagi asosiy qaror qabul qiluvchilardan biri bo'ladi. Shu sababli har qanday holatda ham advokat-vakil mediatsiyada quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- 1) mediatorni tanlashda mijozga yordam berish;





2) mijozni mediator bilan dastlabki maslahatlashuvda ishtirok etishga tayyorlash.

Biroq, masalaning muhim tomoni shundaki, yuqoridagi faoliyat turlarini birlashtirish ya'ni ayni bir shaxsga ham advokat, ham ish bo'yicha mediator sifatida nizoni hal etuvchi bo'lib ishtirok etishi haqida tushunchalarning mavjud emasligidadir. To'g'ri, ushbu qonunning 22-moddasida mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish uchun taraflar o'zaro kelishuvga ko'ra bir yoki bir necha mediatorni tanlash huquqiga egalar, lekin ushbu normaning amal qilishi xolislik prinsiplariga ham mos bo'lishi lozim chunki mediator xolis bo'lishi, mediatsiya tartib-taomilini taraflarning manfaatlarini ko'zlab amalga oshirishi va mediatsiyada ularning teng ishtirokini ta'minlashi shart.

Milliy qonunchiligimizda mediatsiya atamasiga huquqiy maqom berilganiga qaramasdan sudgacha bo'lgan jarayonda, sud tartibida ko'rishda, sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirgunga qadar hamda sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlarini ijro etish jarayonida qo'llanilish darajasi hanuzgacha pastligicha qolmoqda. Xorijiy tajribaga nazar soladigan bo'lsak, AQShda 95%, Germaniyada 90% va Buyuk Britaniyada 90-95% nizoli holatlar sud muhokamasiga qadar hal etiladi. Buning sababi, xorij davlatlari huquq tizimida "mediator-sudya" toifasi shakllangan bo'lib, fuqarolik hamda iqtisodiy sudlarga kelib tushadigan arizalar dastlab aynan shu toifa tomonidan ko'rib chiqiladi. Amaliy jihatdan yondashadigan bo'lsak, mediatsiya usulini sud muhokamasi jarayonida yoki sud hujjati qabul qilingunga qadar qo'llagandan ko'ra samaraliroq hisoblanadi.

Yurtimizda keng ommalashib borayotgan nizolarni muqobil hal qilishning turlaridan biri bo'lgan mediatsiya jarayoni ishtirokchilarining huquqiy maqomini takomillashtirish yuzasidan takliflar quyidagilardan iborat. Birinchidan, noprofessional mediatorga kamida oliy ma'lumotli bo'lishi lozimligi to'g'risidagi talabni kiritish. Ikkinchidan, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish jarayonida taraflar keyinchalik mediatorga nisbatan e'tiroz bildirib qolishi mumkinligini inobatga olgan holda mediatorni tarafga qarindoshligi, boshqa ish bo'yicha tarafning advokati sifatida ishtiroki mavjudligi sababli rad etish tartibini joriy qilish. Uchinchidan, mediatsiya jarayonini keng ommalashtirish qolaversa ishlarning sifatli bo'lishi va fuqarolarda mediatorga nisbatan ishonchni shakllantirish maqsadida professional mediatorlik faoliyatini amalga oshirishga faqatgina oliy yuridik ma'lumotga ega shaxslarga mumkinligini belgilash. To'rtinchidan, mehnat, oila va tadbirkorlik bilan bog'liq nizolarda ishda uchinchi shaxslarning ishtiroki ehtimoli yuqoriligi sababli O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi 482-sonli "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuniga ishda ishtirok etuvchi "uchinchi shaxslar" tushunchasini hamda uchinchi shaxslar bilan bog'liq harakatlarning tartib qoidlarini belgilashni. Beshinchidan, sud muhokamasigacha bo'lgan jarayonda ishlarni ko'rib chiqish uchun "mediator-sudya" toifasini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, mediatsiya jamiyatda yuzaga keladigan tushunmovchiliklarni bartaraf qilishda qo'llanilishi sudlar tomonidan ko'riladigan





ishlar hajmining keskin kamayishiga olib keladi. Biroq, shuni ham unutmaslik kerakki, nizoda ishtirok etuvchi shaxslarning yuksak huquqiy madaniyatga egaligi, qonun va mediativ kelishuvni amalga oshirish tartib taomilini belgilash to'g'risidagi shartnomalarda taraflar ishni o'zlariga maqbul darajada hal qilishlari uchun etarli huquq va majburiyatlarga ega ekanliklari yuksak ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021 y., 03/21/661/0011-son.
2. Gazl. F., Konflikt-menedjment / F.Gazl. – Kaluga, 2014. – 214 s.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son.
4. Pravovoy status uchastnikov mediativnix protsedur A.G. Bezuglaya – 14 c
5. O'zbekiston Respublikasi 2018-yil 3-iyuldagi "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020 y., 03/20/602//0052-son
6. Mediatsiya yoki nizolarni sudgacha hal qilish institutini O'zbekistonda targ'ib etishda xorij tajribasidan foydalanish R. Raxmonov 12 b.
7. Mediatsiya: nizolarni hal qiluvchi institutga aylana oldimi? – Xalq so'zi. // <http://xs.uz/uz/post/mediatsiya-nizolarni-hal-qiluvchi-institutga-aylana-oldimi>.

